


14. 1 soni va raqami






Bir soni
1 raqami bilan yoziladi.



1. Tasvirlangan narsalarning qaysilari dunyoda yagona?



2. Nuqtalarni tutashtirib, 1 raqamini yozing.




3. Rasmda nima ko'p,
nima bitta?





4. Qaysi shakl boshqa shakllardan farq qilyapti? Kvadratlarni bo'yang.



5. Jufti bo'lmaydigan kiyimlarni belgilang.



6. Bobur bir shaklni o'yladi va uni topish uchun sinfdoshlariga shaklning uchta sifatini aytdi:


- 1) u kvadrat emas;
- 2) u havorang emas;
- 3) u aylana yoki uchburchak shaklida.



Siz bu shaklni topa olasizmi?



7. Uycha nechta 1 raqamidan yasalgan?



8. Uch yil avval Aziz Loladan 1 yosh katta edi. Hozir Aziz Loladan nechta yosh katta?

